

# SCIENCE AND EDUCATION

ISSN 2181-0842

VOLUME 5 ISSUE 2

FEBRUARY 2024

# SCIENCE AND EDUCATION

SCIENTIFIC JOURNAL

ISSN 2181-0842

VOLUME 5, ISSUE 2

FEBRUARY 2024



[www.openscience.uz](http://www.openscience.uz)

# SCIENCE AND EDUCATION

## SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 5 ISSUE 2

<b>Executive Secretary</b>	<b>Mas'ul kotib</b>
Tusmatova Nozima Inomovna	Tusmatova Nozima Inomovna
<b>Editorial board</b>	<b>Tahririyat</b>
Z.Yaxshieva	Z.Yaxshieva
Jizzakh State Pedagogical Institute, Doctor of Chemical Sciences	Jizzax davlat pedagogika instituti, kimyo fanlari doktori
S.Sangwa	S.Sangwa
African Leadership University, Doctor of Business Administration	African Leadership University, Doctor of Business Administration
S.Otakulov	S.Otaqulov
Jizzakh Polytechnic Institute, Doctor of Physical and Mathematical Sciences	Jizzax politexnika instituti, fizika-matematika fanlari doktori
M.A.S.Khasawneh	M.A.S.Khasawneh
King Khalid University, Special Education, PhD	King Khalid University, Special Education, PhD
Sh.Akramova	Sh.Akramova
Military-technical Institute of the National Guard, Doctor of Pedagogical Sciences	Milly gvardiya harbiy-texnik instituti, pedagogika fanlari doktori
E.M.Colicassides	E.M.Colicassides
College of Tourism & Hotel Management, Doctor of Science in Communication	College of Tourism & Hotel Management, Doctor of Science in Communication
B.Sultonov	B.Sultonov
Namangan State University, Doctor of Technical Sciences	Namangan davlat universiteti, texnika fanlari doktori
Ya.L.Chemyavskaya	Ya.L.Chemyavskaya
Tyumen State Medical University, Candidate of Philological Sciences	Tюменский государственный медицинский университет, кандидат филологических наук
A.Sidiqov	A.Sidiqov
Tashkent Institute of Chemical Technology, Doctor of Chemical Sciences	Toshkent kimyo-tehnologiya instituti, kimyo fanlari doktori
W.B.Vidona	W.B.Vidona
Edo State University, Anatomy, PhD	Edo State University, Anatomy, PhD
B.Kucharov	B.Kucharov
Institute of General and Inorganic Chemistry of the Academy of Sciences, Doctor of Technical Sciences	Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, texnika fanlari doktori
I.Eshmetov	I.Eshmetov
Institute of General and Inorganic Chemistry of the Academy of Sciences, Doctor of Technical Sciences	Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, texnika fanlari doktori
M.Abdullaev	M.Abdullaev
Andijan State University, Doctor of Historical Sciences	Andijon davlat universiteti, tarix fanlari doktori
Z.Tojieva	Z.Tojieva
National University of Uzbekistan, Doctor of Geographical Sciences	O'zbekiston milliy universiteti, Geografiya fanlari doktori
N.Jiyanova	N.Jiyanova
Tashkent Financial Institute, Candidate of Economic Sciences	Toshkent moliya instituti, iqtisod fanlari nomzodi
X.Qobulov	X.Qobulov
Tashkent Financial Institute, Candidate of Economic Sciences	Toshkent moliya instituti, iqtisod fanlari nomzodi
A.Nabiev	A.Nabiev
Tashkent Institute of Chemical Technology, PhD in Technical Sciences	Toshkent kimyo texnologiya instituti, texnika fanlari PhD
A.Turgunbaeva	A.Turgunbayeva
Namangan State University, PhD in Psychological Sciences	Namangan davlat universiteti, psixologiya fanlari PhD
B.Xaynazarov	B.Xaynazarov
National University of Uzbekistan, PhD in Historical Sciences	O'zbekiston milliy universiteti, tarix fanlari PhD
M.Voxidova	M.Voxidova
Tashkent State Institute of Oriental Studies, PhD in Economics	Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, iqtisodiyot fanlari PhD
A.Rahmonov	A.Rahmonov
Republican Scientific-Practical Center, PhD in Pedagogical Sciences	Respublika ilmiy-amaliy markaz, pedagogika fanlari PhD
G.Ochilova	G.Ochilova
Karshi Institute of Engineering and Economics, Candidate of Philosophical Sciences	Qarshi muxandislik-iqtisodiyot instituti, falsafa fanlari nomzodi
B.Omonov	B.Omonov
Karshi State University, PhD in Philosophical Sciences	Qarshi davlat universiteti, falsafa fanlari PhD
O.Axmedova	O.Axmedova
Bukhara Institute of Engineering and Technology, PhD in Technical Sciences	Buxoro muxandislik-texnologiya instituti, texnika fanlari PhD
G.Jumanazarova	G.Jumanazarova
Jizzakh State Pedagogical Institute, Doctor of Philological Sciences	Jizzax davlat pedagogika instituti, filologiya fanlari doktori
T.Sabirjanov	T.Sabirjanov
Fergana Polytechnic Institute, Candidate of Technical Sciences	Farg'onha politexnika instituti, texnika fanlari nomzodi
Sh.Ismoilov	Sh.Ismoilov
Tashkent State Law University, Doctor of Sciences in Law	Toshkent davlat yuridik universiteti, yuridik fanlari doktori
M.Rakhimov	M.Rakhimov
Tashkent State Law University, Doctor of Philosophy in Law	Toshkent davlat yuridik universiteti, yuridik fanlari falsafa doktori
L.Rakhimkulova	L.Rakhimkulova
Tashkent State Law University, Doctor of Philosophy in Law	Toshkent davlat yuridik universiteti, yuridik fanlari falsafa doktori
A.Sultonov	A.Sultonov
Jizzakh Polytechnic Institute, PhD in Economics	Jizzax politexnika instituti, iqtisodiyot fanlari PhD
B.Safarov	B.Safarov
Bukhara Institute of Engineering and Technology, PhD in Technical Sciences	Buxoro muxandislik-texnologiya instituti, texnika fanlari PhD
J.M.Sasan	J.M.Sasan
PAU Excellencia Global Academy Foundation, Inc., Professional Education	PAU Excellencia Global Academy Foundation, Inc., Professional Education
H.Toshov	H.Toshov
National University of Uzbekistan, PhD in Chemistry	O'zbekiston Milliy universiteti, kimyo fanlari PhD
I.Davletov	I.Davletov
Urgench State University, Doctor of Physics and Mathematics	Urganch davlat universiteti, fizika-matematika fanlari doktori
F.Kholmurotov	F.Xolmurotov
University of Social Development, PhD in Economics	Ijtimoiy rivojlanish universiteti, iqtisodiyot fanlari PhD
A.Mahmudova	A.Mahmudova
Samarkand State Medical University, PhD in Philosophy	Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Falsafa fanlari PhD
Q.Panjieva	Q.Panjieva
Tashkent State Pedagogical University, Doctor of Pedagogical Sciences	Toshkent davlat pedagogika universiteti, Pedagogika fanlari DSc
B.Rahimov	B.Rahimov
Bukhara Institute of Engineering and Technology, PhD in Technical Sciences	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Texnika fanlari PhD
N.Adizova	N.Adizova
Bukhara Institute of Engineering and Technology, PhD in Chemical Sciences	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Kimyo fanlari PhD

## TABLE OF CONTENTS / MUNDARIJA

### EXACT SCIENCES / ANIQ FANLAR

1.	Erali Boyqobilov, N.Raximov <i>Sonning butun va kasr qismi qatnashgan masalalarni yechish metodlari</i>	11
2.	A.Ibragimov, O.Pulatov, A.Qo'chqorov <i>Qiziqarli tenglama va tengsizliklar</i>	17
3.	Alisher Nematilloyevich Ubaydulloyev, Jonibek Mirzoali o'g'li Rajabov <i>Stereometriya haqida umumiy tushuncha, stereometriya aksiomalari</i>	20

### NATURAL SCIENCES / TABIIY FANLAR

4.	Комил Буронович Холиков <i>Эффективное действия сквалан - углеводород тритерпенового ряда и амаранта к заболеваниям рака, опухоли</i>	27
5.	Комил Буронович Холиков <i>Обязанности миелина, о левом и правом пороге миелина</i>	33
6.	Anvar Narzullayevich Asadullayev <i>Lat yeganda va shikastlanganda bиринчи тибби түрдам ко'rsатиш</i>	45
7.	Nargiza Jo'rayevna Babamurodova <i>Qishloq xo'jaligi ekologiyasi va oziq-ovqat muammosi</i>	52
8.	Mohammad Shafiq Haqmal, Abdul Basir Rahmani, Khalil Ahmad Burhani <i>Farah province folkloric medicine treatment</i>	61
9.	Nargiza Toirjonovna Mamatova, Bahrombek Abduvalievich Abduxakimov, Shirin Xayrulloevna Axtamova, Abduvaliy Abduxakimovich Ashurov <i>Ko'p bolali oiladagi bolalarda ko'krak ichi limfa tugunlari silning aniqlanishi va uning kechishi</i>	69
10.	Ikromjon Esanboylivich Uzaqov, Sokinaxon Jo'raxon qizi Xamroxonova, Mehruza Maxmud qizi Ro'zimova, Zebo Abduraxim qizi Uzoqova <i>Orol dengizini qurishidan kelib chiqadigan global muammolar va yechimlar</i>	77
11.	Shoxjaxon Paxlavonovich Rabbimov, Samirjon Shekrozovich Xabibullayev, Damira Akmalovna Oripova, Sherzod Farxodovich Majidov <i>Formation of sanitary and hygienic knowledge as a separate science in the history of medicine</i>	84
12.	Saifullah Amin, Waliullah Qasimi, Said Wali Baran <i>Feasibility study of land readjustment in suburban of Khost city</i>	91
13.	Мехрибон Хуршедовна Хайриллоева, Нигора Аброровна Вафоева <i>Модификации в гемодинамике центрального кровообращения при заболеваниях почек</i>	101
14.	Феруза Хайдаровна Маматкулова, Мухаммад Насриддин ўғли Номозов <i>Сурункали буйрак касаллиги билан оғриган беморларда анемияни даволашга замонавий ёндашувлар</i>	110
15.	Иzzatbek Abdukhaliq ўғли Ураимов <i>Кузги буғдой навларининг мақбул экиш муддатлари ва сугориш тартибларини ҳамда маъданли ўғитнинг тавсия қилинган йиллик мейёрини белгилаш</i>	119
16.	Г.Б.Мустаева, О.С.Тиркашев, Ж.Б.Уралов <i>Эрта ёшдаги болаларда гемоколит синдроми билан кечувчи ўткир ичак инфекцияларини ўзига хос клиник-лаборатор кечиш хусусиятлари</i>	125
17.	М.Ш.Ибрагимова, О.Х.Холмуродов <i>Вклад Авиценны в развитие современной фармацевтики</i>	130

# **Qishloq xo‘jaligi ekologiyasi va oziq-ovqat muammosi**

Nargiza Jo‘rayevna Babamurodova  
Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif tomonidan qishloq xo‘jaligi ekologiyasi va oziq-ovqat muammosi va o‘simpliklar o‘sishi va rivojlanishida tashqi muhitning ta‘siri bo‘yicha fikr mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘simplik, ekologik omillar, tuproq, organik moddalar, o‘simpliklar ekologiyasi, rivojlanish davri

## **Agricultural ecology and food problem**

Nargiza Jorayevna Babamurodova  
Bukhara State University

**Abstract:** In this article, the author comments on the problem of agricultural ecology and food and the influence of the external environment on the growth and development of plants.

**Keywords:** plant, environmental factors, soil, organic matter, plant ecology, development period

O‘simpliklar o‘sish va rivojlanish davrida har doim tashqi muhit omillari bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Shuning uchun tashqi muhit omillari o‘simpliklarning biologiyasiga xos xususiyatlariga mos kelsa, ular yaxshi o‘sadi, rivojlanadi, yuqori sifatlil hosil beradi. Aks holda, ularning o‘sish, rivojlanishi qiyinlashadi, hosil bermaydi, hatto qurib qolishi ham mumkin. O‘simpliklarga zarur bo‘lgan ekologik omillarga suv, issiqlik, yorug‘lik, tuproq, oziq moddalar va boshqalar kiradi. Dala sharoitida o‘simpliklar issiqlikni quyoshdan, suv va oziq moddalarni tuproqdan, havoni (kislород, karbonat angidridni) atmosfera va yerdan oladi.

Shunday qilib, o‘simpliklar tashqi muhit omillaridan «qurilish materiallarini» olib, o‘z tanasini yaratadi, organik moddalarni sintezlaydi. Ma‘lumki, organik moddalar birinchi navbatda barcha mavjudotlar uchun oziqa, ikkinchi navbatda kiyim-kechak xomashyo, uchinchi navbatda qurilish materiallari, to‘rtinchi navbatda o‘tin (yoqilg‘i) va hokazo maqsadlarda ishlataladigan mahsulot hisoblanadi. O‘simpliklarning buyuk xususiyatlari ham shunda, ular tufayli dunyoda hayot barqaror. Shuning uchun dala va o‘rmon o‘simpliklari ekologiyasini har tomonlama chuqur o‘rganish yo‘li bilan ularning tashqi muhit omillariga bo‘lgan talablarini

optimal darajada ta'minlab turish juda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Inson o'simliklarning ekologiyasiga, ya'ni tashqi muhit omillariga turli xil yetishtirish texnologiyalarini qo'llash, yangi navlarini yaratish bilan ularni suv, havo, oziq rejimlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'simliklar ham o'z navbatida tashqi muhit omillariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Ularning ildiz, angiz, poya, barg qoldiqlari tuproqni mikrobiologik, havo, suv, issiqlik, oziq rejimlari o'zgarishiga olib keladi. Natijada, o'simliklar bilan tashqi muhit omillari o'rtasida o'zaro tabiiy bog'lanish kelib chiqadi. O'simliklar tuproq, issiqlik, yomg'lik, suv, havo, oziq kabi tashqi muhit omillarini bir xil miqdorda talab qilmaydi. Shuningdek, tashqi muhit omillari tabiatda yil bo'yli va kechayu kunduzda bir me'yorda bo'lmaydi.

Tashqi muhit omillari o'simliklarning hosil to'plashlari uchun yetarli bo'lganda optimum, yetarli bo'lmasganda minimum va haddan tashqari ko'p bo'lganda esa maksimum hisoblanadi.

Masalan, suv va issiqlik yetishmasligi yoki haddan tashqari ko'p bo'lishi o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi va nihoyat hosildorligiga salbiy ta'sir qiladi. Dala sharoitida yetishtiriladigan barcha o'simliklarning hayot faoliyati tashqi muhit omillari bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun tashqi muhit omillari o'simliklar o'sishi, rivojlanishi va hosil berishida muhim ahamiyatga ega.

Issiqlik. O'simliklarning barcha hayotiy jarayonlari, boshqa omillar bilan birgalikda issiqlik ta'sirida sodir bo'ladi. U atmosfera va tuproq haroratidan iborat bo'lib, o'simliklar hayoti boshlanishining ilk daqiqalaridan boshlab, to uning oxirigacha kerak. Issiqlik omili urug' suvni o'ziga shimishi, unishi, maysa hosil qilishi, o'sishi va rivojlanishi, transpiratsiya (suvni bug'latishi) va fotosintez jarayonlari borishi, hosil yetilishi va boshqa hayotiy jarayonlari uchun zarur. O'simlik hayotining boshlang'ich davrida, ya'ni urug' suvni o'ziga shimib olishi, bo'rtishi, unib chiqishi vaqtida tuproq tarkibidagi issiqlik, urug' tuproq ichida ungach, yer yuziga chiqib, ya'ni maysa hosil qilganda havo (atmosfera) harorati asosiy o'rin tutadi. Har xil o'simliklar o'sish va rivojlanishining barcha fazalarida (davrlarida) m a'lum darajada va miqdorda samarali harorat talab qiladi. Masalan, g'o'zaning chigit 10-12°C da una boshlaydi. 14-16°C da bir tekis maysa hosil qiladi. G'o'za uchun maysa hosil qilishi va shonalash fazasida 10°C dan, gullash va pishish fazasida esa 13°C dan yuqori harorat foydali (samarali) hisoblanadi. G'o'za chigit tuproqqa ekilgandan, to maysa hosil qilishiga qadar 85-90°C. Shonalash davrida 485-500°C, gullash davrida 900-1200°C va 50 foiz maysa hosil yetilguncha 1560-2000°C samarali (effektiv) harorat talab qiladi. O'simliklar rivojlanishining har bir bosqichida zarur bo'lgan haroratni to'g'ri aniqlash, u yoki bu tuman sharoitida muhim ahamiyatga ega. O'simliklarning nafas olishi va fotosintez jarayonlarini borishi ham haroratga bog'liq.

Havo harorati 10°C bo‘lganda ham ko‘pgina o‘simaliklar m e’yorida nafas olaveradi. Harorat ko‘tarila borishi bilan nafas olish jarayoni tezlashadi, 35-40°C ga yetganda o‘simaliklarning nafas olishi tezlashadi, 50°C ga yetganda esa nafas olishi butunlay to‘xtab qoladi. Havo harorati 20-30°C bo‘lganda o‘simaliklarda fotosintez jarayoni yaxshi boradi, ko‘plab organik moddalar to‘planadi.

Barcha dala ekinlarining issiqqliq omiliga bo‘lgan talabiga qarab ikki guruhga: kam va ko‘p talab qiluvchilarga bo‘linadi. Odatda, issiqlikka kam talabchan o‘simaliklar shimoliy hududlardan, salqin tog‘li yerlardan kelib chiqqan va shakllangan. Bunday o‘simaliklarga bug‘doy, javdar, arpa, suli, xantal, raps, no‘xat va boshqalar kiradi. Ularning urug‘lari 1-3°C da una boshlaydi, 4-5°C da maysa hosil qiladi, maysalari 5-8°C li qisqa muddatli sovuqlarga chidaydi. 10-12°C harorat meva elementlarining shakllanishi va gullashi uchun minimum, pishib yetilishi esa 10-20°C optimum hisoblanadi.

Ikkinchi guruhga janubiy issiq iqlim hududlardan kelib chiqqan va shakllangan issiqsevar o‘simaliklar (tariq, makkajo‘xori, jugari, sholi, soya, loviyalar, lo‘biya, g‘o‘za va poliz ekinlari) kiradi. Ularning urug‘lari 7-8°C da una boshlaydi, 8-12°C da maysa hosil qiladi. Ularning maysalari qisqa muddatli -0,5-3,0°C sovuqqa bardosh beradi.

Pishib yetilishi uchun 18-27°Cli harorat talab qiladi. Issiqlik faqat o‘simaliklarning o‘sishi, rivojlanishiga emas, balki bargi tanasi orqali suvni bug‘lanishga (transpiratsiyaga), tuproq eritmasidagi mineral moddalarni eritishga va o‘zlashtirilishiga, shuningdek, tuproqda yashovchi mikroorganizmiar hamda borliq jonivorlarning hayot faoliyati uchun kerak.

Oynavandlar sharoitida o‘simaliklar yetishtirilganda, issiqqliq rejimini sun‘iy ravishda boshqarib borishga imkon tug‘iladi. Oynavandlarda issiqlik rejimi o‘simaliklarning talabiga qarab boshqarib boriladi. Har qaysi o‘simlik uchun issiqlik rejimi uning fazalariga, yetishtirish texnologiyasiga (urug‘ni ekish, ko‘chat qilib o‘stirish), o‘sishini jadallashtirish, sekinlashtirish, to‘xtatish va o‘simaliklarning o‘sish hamda rivojlanish holatiga qarab boshqarib boriladi. Urug‘ ekilgandan so‘ng, harorat maysa hosil bo‘lguncha, biroz ko‘tariladi, birinchi barg hosil bo‘lgach, yana biroz oshiriladi. O‘simaliklar o‘sishini sekinlashtirish va to‘xtatish uchun harorat pasaytiriladi, o‘sishni tezlashtirish uchun esa aksincha, ko‘tariladi. Dala ekinlari o‘simaliklarini issiqlikka bo‘lgan talabi va yuqori ham da past haroratga chidamliligi, ya’ni tolerantligi ularning biologiyasiga bog‘liq.

Tolerantlik darajasi qancha yuqori bo‘lsa, unday o‘simaliklarni turli sharoitli hududlarda yetishtirishga, ular maydonini kengaytirishga imkon bo‘ladi. O‘simaliklarning tolerantligini oshirish o‘simalik m ahsulotlarini ko‘plab yetishtirishda muhim ahamiyatga ega.

O'simliklarda modda almashinushi, o'sishi, rivojlanishi, hosil berishi kabi jarayonlarning borishi, boshqa omillar bilan birga suvga ham bog'liq. Suv o'simlikning barcha a'zolarini tarkibiy qismi hisoblanadi. Hujayraning qobig'i protoplazmasi va hujayra shirasida suv suyuq, hujayra oraliqlarida esa bug'simon holatda bo'ladi. Hujayralarda suvning miqdori o'simlikning turi, tuproq namligi, o'g'it va havoning nisbiy namligi, issiqlik va boshqa holatlarga qarab 70-80%, hatto 90% ga boradi. Suv omili o'simliklarning barcha (ildiz, poya, barg, gul, meva) a'zolarining asosiy qismini tashkil qilibgina qolmay, u oldinma-ketin ro'y beradigan bir-biriga bog'liq bo'lgan uch jarayonni amalga oshiradi. Ular quyidagilar:

1. O'simlik ildiziga suvda erigan moddalarning singishi;
2. Ildiz, poya, barg va boshqa a'zolari orqali suvning harakati qilishi;
3. B arglari, tanasi orqali suvning atm osferaga bug'lanishi (transpiratsiya)dan iborat. Tuproqdagagi suv o'simlikka uning ildiz tukchalari orqali so'rildi. Suv bilan birgalikda unda erigan mineral moddalar o'simlik tanasiga o'tadi. O'simlikka suvning singishi va uni o'simlik tanasi bo'ylab ko'tarilishida transpiratsiya jaravnni katta ahamiyatga ega. O'simliklar butun vegetatsiya davrida har xil miqdorda suv sarflaydi.

U o'simlikning ekologiyasiga bog'liq, o'simliklarning butun vegetatsiya davrida suv sarflash koeffitsiyenti turlicha. O'simliklarning transpiratsiya koeffitsiyentiga harorat, shamol va boshqa omillar katta ta'sir qiladi. O'simlik orqali suvning bug'lanishi fizik jarayon bo'lsa ham, u o'simlikning hayotida muhim biologik va ekologik ahamiyatga ega. O'simlik o'z tanasini tutishi uchun o'zi orqali transpiratsiya jarayonida o'tkazgan suvni 0,2-0,5%dan foydalanadi, qolgan qismi (99,5-99,8%)ni esa bug'lanishga sarflaydi.

O'simlikka suvning so'rishi va tanasi bo'ylab harakat qilishi, bug'lanish jarayonlari uning o'su, rivojlanish davrining fazalarida bir xil emas. Kunning o'rtasida (soat 12-15 da) suvning o'simlikka so'rishi (kelishiga) nisbatan uning bug'lanishi, ya'ni sarflanishi ko'p bo'ladi. Kechasi suvning bug'lanishi keskin kamayadi, shuning uchun o'simlik tanasida, suv tanqisligi yo'qoladi yoki minimum holatga keladi. Kunning yarmida suv tanqisligi ro'y berishi uni (suvni) o'simlik qismlarida taqsimlanishiga olib keladi.

Bunda o'simlikning faol qismlari uning nofaollaridan so'rib (tortib) oladi. Kunning yarmida suv o'simliklar pastki qismlarida, yuqori qismlariga nisbatan ko'proq bo'ladi. Nam yetishmaganda, kunning o'rtasidagi suv tanqisligi kechasi salqin tushishi hisobiga to'la qoplanmaydi. Bunday holatda o'simliklar suv tanqisligini ertalabki soatlardan boshlab sezadi. Natijada, qoldiq suv tanqisligi hosil bo'ladi. Tuproqda namlik kamayganda (unda erigan moddalar hisobiga) uning eritmasi asmotik bosimi ko'tarilishi ildizga suv shimalishini pasaytiradi.

Ildizlarga suvning shimalish tezligi tuproqning hajm birligidagi, aerosiyatsiga ildizlarini oz yoki ko‘p bo‘lishligiga, barglarning so‘rish kuchi va tuproqning nam ni (suvni) ushlab turish qobiliyatiga bog‘liq. Aerotsiya yetishmaganda (kislород кам, karbonat angidrid ortiqcha bo‘lganda) ildizni nafas olishi tezlashadi.

O‘simlikning suv bilan yetarli darajada ta‘minlanishi fotosintez uchun zarur. Suv fotosintez jarayonida Ayrim holatlarda butunlay hosilsiz (mevasiz) bo‘lishiga yoki mevalarini mayda va kam hosilli bo‘lishiga olib keladi.

Masalan, g‘o‘za va boshqa o‘simliklarda suvning yetishmasligi shona, gul va tugunchalari to‘kilib ketishiga sabab bo‘ladi. Suv rejimi o‘simlikning nafas olishiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Suv va oziq rejimlari yaxshi bo‘lganda, nafas olish va shu bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar ancha samarali bo‘ladi.

Ekin o‘siriladigan oynavandlarda suv havo namligini ma‘lum maromlarda ushlab turishi uchun kerak. O‘simlikning suvgaga bo‘lgan talabini aniqlash murakkab bo‘lib, u bir qancha omillarga: ekinni yetishtirish texnologiyasiga, tuproq unumdorligiga, namlik darajasiga, iqlim sharoitiga, o‘simlikning biologik xususiyatlariga bog‘liq.

O‘simlikning suvgaga optimum darajaga yetganda, hosilning ortishi unga emas, boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi.

O‘simliklar ham boshqa mavjudotlarga o‘xshash havodan nafas oladi. Ular havodan kislородни олиб, karbonat angidridni tashqariga chiqaradi. Nafas olish paytida oksidlanish jarayoni ro‘y beradi. Bu jarayonda o‘simliklarda organik moddalar to‘planmaydi, aksincha, o‘sish va rivojlanishga sarflanadi. O‘simliklar kechayu kunduz davomida nafas oladi. Lekin kunduzi fotosintez jarayoni oqibatida o‘simliklarda organik moddalar to‘planib, ularning nafas olishiga bo‘lgan sarflanish minimum holatda bo‘ladi.

Shuning uchun uigaiuk moddalar kamayishi bilinmaydi. O‘simliklar kechasi nafas olayotganda (qorong‘ida fotosintez jarayoni bo‘lmaganligi uchun) organik moddalarning sarflanishi maksimum holatda bo‘ladi.

O‘simliklar nafas olish uchun kislородни atmosfera va tuproqdan oladi. Tuproq havosi tarkibida o‘simliklar uchun zarur bir qancha oziq elementlari kislород, uglerod, azot mavjud. O‘simlik ildizi nafas olganda ko‘p miqdorda karbonat angidrid ajraladi. U havo almashinishi vaqtida tuproqdan atmosferaga, ya‘ni o‘simliklarning assimilatsiya qismi joylashgan muhitga ko‘tariladi. Havoda karbonat angidrid konsentratsiyasi ortgan sari o‘simliklarning fotosintez jarayoni yaxshilanib, quruq moddalar ko‘p to‘planadi.

Kislород o‘simlik ildizining nafas olishi uchun zarur. O‘simliklar tur, xil va navlarining xususiyati va rivojlanish iazalanga qarab har xil bo‘ladi. Ular sernam tuproqlarda havo yetishmasligi tufayli nobud bo‘lsada, lekin shunga qaramay oziq eritmasi havo bilan to‘yintirilganda ular gidropnika sharoitida ham o‘saveradi.

O'simliklarning ildizlari butun o'suv davrida karbonat angidrid ajratib turadi. Odatda, o'simlik qoldiqlari va organik o'g'itlar (asosan, go'ng) yerga haydalganda tuproqqa ko'milib, aerob bakteriyalar ta'sirida chirindiga aylanadi. Shundan so'ng, chirindini aerob bakteriyalar butunlay oxirigacha to'la parchalaydi mineral moddalarga aylantiradi, shu jarayon natijasida karbonat angidrid ajralib, tuproq havosi tarkibiga kiradi. Tuproq havosida karbonat angidridning ko'payishi bilan o'simlik ildizlari va aerob bakteriyalarning nafas olishi hisobiga kislorod kamayadi.

Bunday holda o'simlik ildiz chiqarmaydi va o'sishi, rivojlanishi to'xtaydi. Atmosfera bilan tuproq o'rtasida havo alm ashinuvi me'yorida bo'lganda, o'simlikning o'sishi va rivojlanishi hamda hosil toplashi uchun tabiiy muvozanat vujudga keladi.

O'simliklar oynavandlarda o'stirilayotganda CO, konsentratsiyasini ko'paytirish hosilni oshiradi. Havo tarkibida karbonat angidridning konsentratsiyasi 0,03% bo'lishi, o'simliklar talabiga nisbatan juda kam hisoblanadi. Shuning uchun tuproqdan ajralib chiqayotgan karbonat angidrid juda katta ahamiyatga ega.

Karbonat angidrid miqdorini ko'payishi o'simliklarning fotosintez faoliyatini yaxshilab, ekinlar hosilini oshirishga olib keladi. Fotosintez jarayonida o'simlik 1 tonna karbonat angidrid o'zlashtirish uchun 2 tonna kislorod ajratadi. Tuproqda karbonat angidridning ko'payib ketishi aerob bakteriyalarga va o'simliklarning ildizlariga zarar yetkazadi. Chunki, CO, ko'payib ketsa, u tuproqdagagi kislorodni siqib chiqarishga olib kelib, ildizlaming nafas olishi qiyinlashadi. Bu, ayniqsa, tugunak va ildiz hamda ildizmevalilar hosilini kamaytiradi.

Havo rejimi optimal darajada bo'lganda, o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi yaxshi bo'ladi. Tuproqni sifatli ishslash, donadorligini mustahkamlash va yumshatish yo'li bilan uning havo rejimini yaxshilash mumkin. Sernam tuproqlarning havo rejimini yaxshilash uchun zaxni qochirish, egat ochish, dala maydoni sathini oshirish-yer betidan suvni ko'plab bugiatishga erishish, pushta ustiga ekishni amalgalash lozim. Sun'iy usulda «tabiiy muvozanat»ni saqlash oynavandlar sharoitida qo'llanishi mumkin.

Chunki oynavandlarda, odatda, karbonat angidrid yetishmasligi tufayli fotosintez jarayonini susayishi, ekinlarning hosildorligi kamayishiga olib keladi. Shuning uchun oynavandlarda ekinlarga (optimal havo sharoiti yaratish maqsadida) kunduzgi soatlarda karbonat angidrid gazi ballonlarda beriladi. Bu usul oynavandlarda yetishtiriladigan ekinlarning hosilini deyarli oshirishga olib keladi. Masalan, sun'iy ravishda oynavandlarda bodringni karbonat angidrid bilan ta'minlash uning hosilini 25-75 % gacha oshirishga imkon beradi. Oynavandlarda ekinlarni karbonat angidrid gazi bilan optimal darajada ta'minlash maqsadida ballonlarda berish usuli bilan bir qatorda qattiq karbon bo'laklari (sun'iy, muz)ni o'simliklar atrofiga qo'yib chiqish yo'li ham qo'llaniladi. O'simliklami oynavandlar sharoitida

karbonat angidrid bilan ta'minlash ularni yorug'lik va mineral oziqlar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Oynavandlarda karbonat angidiridning optimal miqdori bodring uchun 0,6%, pomidor va salat uchun 0,3-0,35 % hisoblanadi.

Karbonat angidridning bu ko'rsatkichi tabiiy sharoitdagiga (0,03 %) nisbatan 10-20 marta ko'p. Shuning uchun ham oynavand ekinlaridan dalada yetishtirilganga nisbatan 10-15 marta va undan ko'p hosil olinadi. Oynavndlarga o'simliklar karbonat angidrid bilan sun'iy oziqlantirish assimilatsiya jarayoni jadal borayotgan paytlarda o'tqazilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. К.Ф Абдуллаев, Н.Ж Бобомуродова, К.К Кобилжонов, Высокая духовность основа экологической культуры. Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации, 5-8.
2. К.Ф Абдуллаев, Н.Ж Бобомуродова. Физическая культура и спорт-эффективное средство предотвращения вредных привычек у подростков. Человек и природа, 195.
3. К.Ф Абдуллаев, Н.Ж Бобомуродова. К проблеме взаимодействия общества и природы. Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI века, 255-256.
4. Н.Ж Бобомуродова. Экологическая культура как общечеловеческая ценность. ББК 74, 188.
5. Н.Ж Бобомуродова. Оптимальный режим питания-важный фактор правильного физического развития детей. Вестник науки и образования, 61-63.
6. К.Ф Абдуллаев, Н.Ж Бобомуродова. Взгляды на астрологию великого мыслителя абурайхона беруни Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные ...
7. Н.Ж Бобомуродова. Педагогические науки задачи школы по охране природы. Вопросы науки и образования 18.
8. Н.Ж Бобомуродова. Задачи школы по охране природы школьников. Вопросы науки и образования, 18-20.
9. К.Ф Абдуллаев, Н.Ж Бабамуродова. Задачи родителей в физическом воспитании детей в семье. Паённомай фарҳанг, 89-93.
10. Н.Ж Бобомуродова. Любовь к человеку-идейная основа гуманизма алишера навои. Символ науки, 40-43.
11. К.Ф Абдуллаев, Н.Ж Бобомуродова. Вклад великого мыслителя абу беруни в естественные науки. Антропологическое знание как системообразующий фактор профессионального.

12. N Babamuradova. Влияние оптимального режима питания для правильного физического развития детей в условиях изменения климата. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 45 (45).
13. N Babamuradova. Zamonaviy ta'lim mazmunida yoshlarda ekologik tafakkurni shakllantirish. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 44 (44).
14. N Babamuradova. Ekologiya darslarida interfaol mashqlar va topshiriqlardan samarali foydalanish shart-sharoitlari. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 43 (43).
15. N Babamuradova, Sulaymanova Z. A., Umarov B.B., Kadirova Z.Q., Xudoyarova E.A. Thermal behavior of ferrocenoylacetone benzoylhydrazone and its complex with copper(ii) ion. Eurasian journal of medical and natural sciences 2 (4), 2099-2112.
16. N Bobomurodova. Ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirishning dolzarbliji. Talqin va tadqiqotlar 1 (10).
17. N Babamuradova. Ajzdodlar merosida barkamol inson salomatligi foysi. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 32 (32)
18. N Babamuradova. Conservation of water and soil resources. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 32 (32).
19. N Babamuradova. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv fanlaridagi integratsiya jarayonlar. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 32 (32).
20. N Babamuradova. Aholini ommaviy sog'lomlashadirishda jismoniy mashqlarning o'rni. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 32.
21. K.A Ergashovich, N.U Toshtemirovna, A.K Rakhimovna, F.F Abdullayevna. Effects of microelements on drought resistance of cotton plant. International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24 (2), 643-648.
22. F.A Fayziyeva, F.A Nazarova. Bioecology and useful properties of papaya or melon tree. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal 11 (3), 1778.
23. М.И Мустафаева, Ф.А Файзиева. Сравнение альгофлоры биопрудов г Бухары с аналогической флорой прудов Узбекистана. Евразийский Союз Ученых.
24. Ф.А Файзиева, Kholliyev Askar Ergashovich1, Norboyeva Umida Toshtemirovna. The Properties of Cotton Resistance and Adaptability to Drought Stress. Journal of Pharmaceutical Negative Results 13 (Issue 4), 958-961.
25. М.И Мустафаева, С.М Гафарова. Биоэкологическая характеристика водорослей биологических прудов города Бухары. Ученый XXI века, 18-20.
26. М.И Мустафаева, Ф.А Файзиева. Экофлористический анализ водорослевого населения водоемов Евразийский Союз Ученых, 80-81.

27. Н.Хамрокулова, М.И.Мустафаева. Биоиндикаторность-изучения степени загрязнения вод при помощи альгофлоры биопрудов. Национальная ассоциация ученых, 102-103.
28. М.И.Мустафаева, С.М.Гафарова. Эко-флористическая характеристика водорослей биологических прудов очистных сооружений. Ученый XXI века, 15-17.
29. М.И.Мустафаева, Ф.А.Файзиева. Преобладающие виды водорослей биологических прудов очистных сооружений. Национальная ассоциация ученых, 100-101.
30. М.И.Мустафаева, Ф.А.Файзиева. Сравнение альгофлоры биопрудов г. Бухары с аналогической флорой прудов Узбекистана. Евразийский Союз Ученых, 81-82.